



O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING YO'NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Raxmanov M.A.

Andijon davlat universiteti menejment kafedrasida o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19059705>

Annotatsiya Mazkur tezisdagi Respublikamizda moliya bozorini rivojlantirishning yo'nalishlari tendensiyalari, istiqbollari va moliya bozorida muammolarni yechishga qaratilgan nazariy xulosa va amaliy takliflar berilgan

Kalit so'zlar: Moliya bozori, investitsiya, raqamli iqtisodiyot, tendensiya,

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliya bozori orqali vaqtincha bo'sh pul mablag'lari iqtisodiyotning turli sohasiga yo'naltiriladi va investitsiya jarayonlari jadallashadi. Shuningdek, moliya bozori iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, kapital harakatini ta'minlash hamda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda muhim rol o'ynaydi.

Dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan globalashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda moliyaviy instrumentlarning ko'payishi moliya bozorining yangi rivojlanish bosqichiga o'tishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, zamonaviy tendensiyalarni o'rganish va istiqbolli rivojlanish yo'llarini belgilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Oliy Majlis Senati qo'mitalari va Bank-moliya akademiyasi bilan hamkorlikda tashkilotilgan "Moliya bozori va moliya xizmatlari sohasini yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari: milliy amaliyot va xalqaro tajriba" mavzusidagi davra suhbatidam yurtimizda mazkur yo'nalishdagi muammolar muhokama qilindi. Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Alisher Kurmanov mazkur davra suhbatida so'zga chiqib, korporativ boshqaruv va moliya sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, qimmatli qog'ozlarni sotish orqali jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha ishlarni yanada jonlantirish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozorida qator muhim o'zgarishlar ro'y berishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, fond bozori aylanmasini joriy etish orqali iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni 200 million AQSH dollardan 7 milliard dollargacha oshirish va davlat ulishi bo'lgan tijorat banklarida transformatsiya





jarayonlarini yakunlash hamda 2026-yil oxiriga qadar bank tizimifaollarida xusisiy sektor ulishini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda

Moliya bozorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotda bo'sh turgan moliyaviy resurslarni jalb qilish;
- investitsiyalarni rag'batlantirish;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida kapitalni qayta taqsimlash;
- moliyaviy risklarni kamaytirish;
- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

Moliya bozori orqali korxonalar investitsiyalarni jalb qiladi, davlat iqtisodiy dasturlarni moliyalashtiradi, aholining jamg'armalari esa iqtisodiyotga yo'naltiriladi. Natijada iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar shakllanadi. Moliya bozorini rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, moliya institutlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Banklar, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning faoliyatini kengaytirish moliya bozorining barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali korxonalar qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, moliya bozorining huquqiy bazasini takomillashtirish zarur. Moliya bozorida shaffoflikni ta'minlash, investorlarning huquqlarini himoya qilish hamda moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlarning moliyaviy bilimlarini oshirish orqali moliya bozorida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda moliya bozorida bir qator zamonaviy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ulardan biri raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishidir. Fintech kompaniyalari, elektron to'lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari moliya bozorining yangi rivojlanish bosqichiga o'tishiga turtki bermoqda.

Yana bir muhim tendensiya – bu global moliya integratsiyasining kuchayishidir. Mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy aloqalar kengayib bormoqda,





xalqaro investitsiyalar hajmi ortmoqda. Bu esa milliy moliya bozorlarining xalqaro moliya tizimi bilan integratsiyalashuvini ta'minlamoqda. Shuningdek, moliya bozorida innovatsion moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi ham muhim tendensiyalardan biridir. Kriptovalyutalar, raqamli aktivlar, "yashil" obligatsiyalar va boshqa yangi moliyaviy instrumentlar investorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Kelajakda moliya bozori yanada rivojlanib, iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi moliya xizmatlarining yanada qulay va tezkor bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash orqali moliya bozoriga xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, moliya bozorida shaffoflikni ta'minlash, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish muhim istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, moliya bozori iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Uni rivojlantirish uchun moliya institutlarini takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini kengaytirish, huquqiy bazani mustahkamlash va moliyaviy savodxonlikni oshirish zarur. Zamonaviy tendensiyalar, xususan raqamli texnologiyalar, innovatsion moliyaviy instrumentlar va global integratsiya moliya bozorining yangi rivojlanish bosqichiga o'tishiga imkon yaratmoqda. Kelajakda ushbu jarayonlar moliya bozorining yanada barqaror va samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Korporativ boshqaruv va moliya sohasida moliyaviy savodxonligini oshirish borasida ham hech qanday muammo qolmaydi. Zero, bilimli, mustaqil fikriga ega, izlanuvchan yoshlarning kun sayin ko'payib borishi taraqqiyot poydevoridir, bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishiga kafolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [https://uza.uz/oz/politics/O'zbekiston Respublikasi prezidenti shavkat mirziyeevning-oliy-25-01-2020](https://uza.uz/oz/politics/O'zbekiston-Respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020-yil 21-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Senatiga Murojaatnomasi. <http://turkiston.uz> (murojaat sanasi: 16.03.2020)
3. G.F.Ismoilova. M.M.Parpieva. Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 2-son "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ahamiyati"





4. Giyasova N.B. Raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy ahamiyati va rivojlanish yo‘nalishlari “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 23- noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

